



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
XORAZM VILOYAT KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK
BOSH BOSHQARMASI
BUYRUQ**

"30" 10

2023-yil

Nº 230-*con*

Urganch shahri

O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 27-oktabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufiy tashkilotlarida xizmat tekshiruvi va xizmat o'rganishi o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 190-sonli buyrug'inining ijrosini ta'minlash to'g'risida

ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi-foydalanish bo'yicha talablar va tavsiyalar" xalqaro standartining talab va tavsiyalarini inobatga olgan holda vazirlik, hududiy bosh boshqarmalar hamda vazirlik tizimdagи agentliklar, tashkilot va muassasalarda xizmat tekshiruvi va xizmat o'rganishi o'tkazish shaffofligini ta'minlash jarayonini yanada takomillashtirish va Vazirlikni 2023-yil 27-oktabrdagi 190-sonli buyrug'ini bajarilishini ta'minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 27-oktabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, hududiy bosh boshqarmalari va tasarrufiy tashkilotlarida xizmat tekshiruvi va xizmat o'rganishi o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 190-sonli buyrug'i bilan Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, hududiy bosh boshqarmalar, vazirlik huzuridagi agentlik hamda tasarrufiy tashkilot va muassasalarda xizmat tekshiruvi va xizmat o'rganishi o'tkazish tartibi to'g'risidagi ilovaga muvofiq tasdiqlangan nizom amalda bajarish va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Xorazm viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi,

tasarrufiy tashkilot rahbarlari hamda Komplayens nazorat bosh mutaxassisi (Z.Xodjayev) zimmasiga:

vazirlikning buyruqi bilan tasdiqlangan nizomni barcha rahbar va xodimlarga tanishtirilishini ta'minlash;

o'tkaziladigan xizmat tekshiruvi va xizmat o'rganishilarini Nizom talablari asosida olib borish;

xizmat tekshiruvi va xizmat o'rganishi natijasiga ko'ra, xodimlarning javobgarligi masalasini adolatli va xolisona hal etish;

xizmat tekshiruvi, xizmat o'rganishi tartibi va muddatlariga rioya qilinishi ustidan nazoratni kuchaytirish;

xizmat tekshiruvi yakuni bo'yicha tuzilgan xulosada hamda xizmat o'rganishi ma'lumotnomasida belgilangan topshiriq va chora-tadbirlar ijrosini to'liq ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

3. Xorazm viloyati Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi, tasarrufiy tashkilot rahbarlari hamda Komplayens nazorat bosh mutaxassisi (Z.Xodjayev):

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni talablariga muvofiq shaxsga oid hamda xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlarni oshkor etmaslik, tarqatilishini oldini olish maqsadida xizmat tekshiruvi xulosasi va o'rganish ma'lumotnomasi hamda ish jildidagi mavjud hujjatlardan nusxa olinishiga yoki boshqacha usulda berilishiga yo'l qo'yilmasligini;

xizmat tekshiruvi xulosasi "xizmat doirasida foydalanish uchun" mo'ljallangan hujjat hisoblanib, xizmat tekshiruvi xulosasi va to'plangan hujjatlar vakolatiga kirmagan hamda taalluqli bo'limgan shaxslarga tanishtirilmasligini ta'minlasinlar.

4. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 27-oktabrdagi 190-sonli buyruqi qabul qilinishi munosabati bilan vazirlikning 2023-yil 26-maydagi 89-sonli buyrug'ining 3-ilovasi o'z kuchini yo'qotganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Bosh.boshqarma boshlig'i



Z.Ollakuliyev

